

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING TEZKOR-QIDIRUV XIZMATLARI BILAN HAMKORLIGI

*Ilmiy rahbar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrasida
dotsenti y.f.b.f.d (PhD) dotsent N.A. Ashurova
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 306-guruh kursanti
Mirvosiqov Bekzod Raxim o'g'li*

Annotatsiya: Bitiruv malakaviy ishida profilaktika inspektorining tezkor-qidiruv xizmatlari bilan hamkorligining uziga xos xislatlari, asosiy yunalishlari, xukukiy asoslari, amaliyat taxlili ushbu yunalishdagi muammo kamchiliklar va ularni bartaraf yetish yuzasidan bir kator taklif va tavsiyalar yoritib berilgan..

Annotation: The graduation deals with the concept relevance of the research subject the current state of prevention of crimes and the features of inspectors on the prevention of offences. In addition practice analysis of norms under the Common preventive measures of inspectors and the procedural and norms conditioned within the scope of this work suggestion on elimination the problems and failures in these field were discussed.

Asosiy qism

Ichki ishlar organlarining soxaviy xizmatlari xodimlari jamoat tartibini saqlash O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoiy tajovuzlardan himoya qilish hamda xavfsizligini shuningdek huquqbuzarlik profilaktikasini taminlash borasida tegishli chora-tadbirlarni va holati doirasida mustaqil ravishda va o'zaro hamkorlikda amalga oshirishlari mumkin.

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi asosiy subyektlari sifatida quyidagi asosiy soxaviy xizmatlarni keltirib o'tish mumkin

Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati;

Tezkor-qidiruv xizmati;

Tergov xizmati;

jamoat tartibini saqlash va patrul-post xizmatlari;

yo'l harakati xavfsizligi xizmati;

Takidlash lozimki profilaktika inspektorining tezkor-qidiruv xizmatlari bilan hamkorlikni o'ziga xos xususiyatlaridan quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

Sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan ocish bo'yicha tezkor tadbirlarni tashkil etish.

Bedarak yo'qolganlarni aniqlash bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

Qidiruvdagi shaxslarning ushlab.

Ekstremistik va Terroristik tashkilotlarni aniqlash va faoliyatiga chek qo'yish aniqlash hamda bartaraf etish.

Narkotik moddalarni noqonuniy savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar va guruhlarini aniqlash.

Uyushgan guruh va jinoyiy tuzilmalarni aniqlash.

Tezkor qiziqish uyg'otuvchi, shu jumladan ilgari sudlangan va ma'muriy nazoratda turgan shaxslarning ustidan ma'lumotlar to'plash.

Tezkor – profilaktik tadbirlar tashkil etish va amalga oshirish.

Profilaktika inspektorining tezkor – qidiruv xizmatlari bilan hamkorlikning ustunligi jinoyatchilikning har qanday ko'rinishdagi qat'iy kurash olib boorish eng asosiy ularning sodir etilishi sabablari va imkon bergan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash bartaraf etish huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish "jinoyatlarni jilovlash"da eng asosiy vazifalardan biridir

Profilaktika inspektorlari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni o'tkazishda, oilaviy-maishiy nizolar masalalarini hal etishda, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, noqonuniy diniy tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yish choralarini ko'rishda, fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqlariga rioya etilishini, diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashda fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlik qiladilar. Odam savdosi qurboniga aylangan xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga ularning ijtimoiy hayotga moslashishlari uchun har tomonlama ko'mak berish; tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda fuqarolar ogohligini, xotin-qizlar faolligini oshirish. Ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni o'tayotgan yoxud jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, shu jumladan, diniy ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslarning yaqin qarindoshlari bilan profilaktika ishlarini olib borish va ularga ko'maklashish

Ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv faoliyatini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish:

uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va ularning analoglari noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish chora-tadbirlari samaradorligini oshirish;

axborot texnologiyalari va Internet tarmog'idan foydalanish sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish borasida tubdan yangi mexanizmlarni joriy etish;

tezkor bo'linmalar faoliyatini apparat-dasturiy ta'minlash, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish.

Bundan tashqari shaxsga qarshi va mulkiy jinoyatlar odam savdosi giyohvandlik vositalari va psixotrop-moddalarning noqonuniy aylanishi terrorizm

va diniy ekstremizmning oldini olish ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish.

Hududda sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan tez va to'la ochish o'tgan yillarda sodir etilib ochilmay qolgan jinoyatlarni fosh etishda shuningdek boshqa noxush hodisa va holatlarning kelib chiqishi sabablari va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish. Kriminogen vaziyatga tasir etuvchi omillarni taxlil qilishda birinchidan bilvosita tasir qiluvchi xususan hududning joylashuvi maydoni axoli soni ishsizlik darajasi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, ikkinchidan jinoyatchilikning jamiyatda bo'lishini rivojlanishini taqozo qiluvchi belgilab beruvchi tasir qiluvchi sabablari sifatida harakat qiluvchi hodisalar voqealar va jarayonlarni ular o'rtasida sababiy bog'lanishni o'rganish kerak.

Profilaktika inspektorining tezkor-qidiruv xizmatlari bilan hamkorligi quyidagi o'ziga xoz xususiyatlarga ega:

- Birgalikdagi faoliyatining subyekt obyekt va predmeti mavjudligi
- faoliyatga umumiy maqsad vazifa va yo'nalishlari
- hamkorlikning mukammal optimal har ikki tomon uchun maqbul bo'lgan shakl va usullarini qo'llanilishi
- axborot taminoti va taxlilga egaligi
- ishtirokchilarning hamkorlikni tashkil etish uchun masulligi va birgalikdagi faoliyatining baxolab borilishi.

Hamkorlikning ahamiyati shundaki jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi amalga oshirishda muvofiqlashgan harakati orqali erishish mumkin. Zero, doimiy muvofiqlashgan o'zaro hamkorliksiz jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni tashkiliy ravishda amalga oshirib bo'lmaydi. Jamiyat azolarining tinchligi va osoyishtaligi xavfsizligini taminlash ichki ishlar organlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda ushbu yo'nalishda tadbirlar islohotlar amalga oshirildi va huquqbuzarliklar profilaktikasini barvaqt oldini olish alohida o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-sonli Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – Yurt taraqqiyoti va xalq faravonligini garovi" // TOSHKENT «O'ZBEKISTON»-2017
5. Shavkat Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". T. 2017y
6. Shavkat Mirziyoyev "Ichki ishlar organlari faoliyati, tizimda mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalar"ga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi. 2017 yil 9 fevral.
7. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 17 apreldagi "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" qonuni
8. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda "terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni
9. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 25 avgust kunidagi "Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 191-sonli buyrug'i